

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

**Hasanova Shalola Farxodovna**

Buxoro davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13853936>


**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida ART texnologiyasidan samarali foydalanish usullari tahlil qilinadi. ART texnologiyasi – san'at elementlarini ta'lim jarayoniga qo'shish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metoddir. Maqolada tasviriy san'at, drama, musiqa va raqamli texnologiyalarni o'qish darslariga integratsiya qilish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quvchilarning emotsional va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda, ularning ijodiy faolligini oshirishda ART texnologiyalarining qanday ahamiyatga ega ekani yoritilgan. Ushbu usullar orqali bolalarning o'qish jarayoniga qiziqishi oshadi va bilimlarini samarali o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

**Kalit so'zlar:** ART texnologiyasi, ARTpedagogika, boshlang'ich sinf, o'qish darslari, ijodiy rivojlanish, tasviriy san'at, musiqa, drama, raqamli texnologiyalar, emotsional rivojlanish.

**Аннотация.** В этой статье будут проанализированы способы эффективного использования арт-технологий на уроках чтения в начальной школе. АРТ - технология-метод, направленный на развитие творческих способностей учащихся путем включения элементов искусства в образовательный процесс. В статье рассматриваются способы интеграции изобразительного искусства, драмы, музыки и цифровых технологий в учебные занятия. Также освещается значение арт-технологий в развитии эмоционального и критического мышления учащихся, повышении их творческой активности. Благодаря этим методикам повышается интерес детей к процессу чтения и создается возможность эффективного усвоения их знаний.

**Ключевые слова:** АРТ-Технологии, арт-педагогика, начальная школа, уроки чтения, творческое развитие, изобразительное искусство, музыка, драма, цифровые технологии, эмоциональное развитие.

**Annotation.** This article analyzes the methods of effective use of ART technology in elementary school reading classes. ART technology is a method aimed at developing students' creative abilities by incorporating elements of art into the educational process. The article examines methods for integrating visual arts, drama, music, and digital technology into reading classes. It also



highlighted the importance of ART technologies in the development of emotional and critical thinking of students, in increasing their creative activity. Through these methods, children's interest in the reading process increases and the opportunity to effectively master their knowledge is created.

**Keywords:** ART technology, Artpedagogics, primary class, reading classes, creative development, fine arts, music, drama, digital technology, emotional development.

ART pedagogikasi inson hayotida muhim o'rin tutadigan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga qaratilgan. Ushbu usul bolalarning ichki dunyosini ochish, ularning tasavvur qilish, ijodiy fikrlash va his qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

ART pedagogikasi - bu ijodiy faoliyat orqali ta'lim jarayonini rivojlantirish usuli hisoblanib, ta'lim tarbiya jarayonida ushbu pedagogikadan foydalanishning o'ziga xos maqsad va vazifalari mavjud. ART pedagogikasi vositasida o'quvchi yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ichki dunyosini ochish, badiiy ijod orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali qilish juda kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydi (1- rasmga qarang)

Insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Bolalarning ichki dunyosini ochish

Ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va oson qilish

Shaxsning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shish

### 1- rasm. ART pedagogikasining maqsadi.

O'quv - tarbiya jarayonida ART pedagogikasidan foydalanish bir qator afzalliklarga ega. Jumladan,

- ✓ ta'lim jarayoni qiziqarli va ta'sirchan bo'ladi;
- ✓ o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- ✓ o'quvchilar o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- ✓ ta'lim jarayoni o'quvchilarga yangi tajribalar beradi va u quyidagi rasm chizish, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, adabiyot kabi sohalarni o'z ichiga olgan

holda o'quvchi yoshlarning fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarini rivojlantiradi, shaxsiy qiziqishlariga mos faoliyatlari asosida ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun innovatsion muhit yaratadi (2 rasmga qarang).



## 2 rasm. ART pedagogikasi vositasida ta'lim muhitining imkoniyatlari

Mavzuga oid olib borgan amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf darslarida ART pedagogikasidan foydalanishda o'qituvchi quyidagi vazifalarga alohida e'tibor berishi kerak:

-ijodiy faoliyat turini tanlash va o'quvchilarning qiziqishiga mos tarzda tashkil qilish;

-o'quvchilarning ijodiy ishlarini baholash va ularni rag'batlantirish;


-o'quvchilar uchun ijodiy muhit yaratish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish.

-ijodiy faoliyat orqali bolalarning shaxsiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish shular jumlasidandir.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qish darslarida Art pedagogikasi vositasidan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslari nafaqat savodxonlikni oshirish, balki bolalarning estetik didini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. ART texnologiyasi o'qitish jarayoniga san'at elementlarini qo'shish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyani o'qish darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning faolligi, ishtiyoqi va ijodiy fikrlashi kuchayadi. Quyida biz boshlang'ich sinf o'qish darslari tajriba - sinov jarayonida qo'llagan usullardan namunalar keltirishni lozim topdik (1- jadvalga qarang).

### 1-jadval.



**Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari**

Usullar	Yo'nalishlari	Vazifasi
Rasm va illustratsiyalar	Rasmlar orqali so'zlarni o'rganish	Rasmlar yordamida so'zlarni tushuntirish, ularning ma'nosini vizual ravishda ko'rsatish mumkin
	So'z tasvirini chizish	O'quvchilar so'zlarni o'zlari chizib bersin. Bu ularning so'zni anglash darajasini va ijodiy qobiliyatlarini baholashga yordam beradi
	Kitob illustratsiyalari	Darsliklardagi illustratsiyalarni muhokama va tahlil qilish va o'z fikrlarini bildirish orqali o'quvchilarda tasavvur qilish ko'nikmasini rivojlantiradi
Teatrlash	Hikoyalarni teatrlash	O'quvchilar hikoyalarni o'qib, ularning qahramonlarini sahnalashtirish orqali so'zlarni anglash, ovoz va harakat bilan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
	So'zlarni harakat orqali ifodalash	So'zlarni ifodalash uchun harakat va mimika qo'llash orqali so'zlarning ma'nosini yanada chuqurroq anglash mumkin
Musiq va qo'shiqlar	Qo'shiqlar orqali so'zlarni o'rganish	Bolalar uchun qiziqarli qo'shiqlarni ishlatib, so'zlarni yodlash va anglash jarayonini osonlashtirish mumkin
	She'rlarni o'qishda musiq qo'llash	She'rlarni o'qishda musiq fonini qo'llash orqali she'rning hissiyot va mazmunini his qilish va anglash mumkin
Ijodiy yozuv	Hikoya yozish	O'quvchilar o'zlari ko'rgan rasmlar, eshitgan qo'shiqlar yoki hikoyalar asosida hikoya yozishlari mumkin. Bu ularning tasavvur qilish, so'z boyligi va yozuv ko'nikmalarini rivojlantiradi
	She'r yozish	Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sodda she'rlarni yozish va ularni o'qib beruvchi o'yinlar o'tkazish mumkin.

O'yinlar va faoliyatlar	"So'z o'yini"	So'zlarni qo'llab, turli o'yinlar o'ynash orqali so'zlarni yodlash va anglash jarayonini qiziqarliroq qilish mumkin
	"Rasmlarni bog'lash"	Turli rasmlarni bir-biri bilan bog'lab, hikoya tuzish orqali tasavvur qilish va so'z boyligini rivojlantirish mumkin
	"So'z haykali"	So'zlarni ifodalash uchun harakat va mimikani qo'llab, "so'z haykali" tuzish orqali so'zlarning ma'nosini yanada chuqurroq anglash mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ART pedagogikasi vositalariga asoslangan 1-jadvalda keltirilgan usullardan foydalanishda:

- o'quvchilarning yoshi va o'qish darajasini hisobga olish.
- ijodiy faoliyatni bolalar uchun qiziqarli va motivatsiyali qilish.
- o'quvchilarning ijodiy ishlarini baholash va ularni rag'batlantirish.
- ART pedagogikasi vositasini dars mavzusiga mos tarzda qo'llash kabilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

O'qish darslarida matnlarni o'qib tushunishni yaxshilash uchun tasviriy san'at elementlaridan foydalanish mumkin. O'qituvchi bolalarga matn mazmunini tasavvur qilishni o'rgatadi va uni vizual tarzda aks ettirishga undaydi. Masalan, o'quvchilar o'qigan hikoyaning asosiy qahramonlarini yoki voqealarni qog'ozga chizishlari mumkin. Bu usul nafaqat o'qilgan matnni tushunishni chuqurlashtiradi, balki bolalarning tasavvuri va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Misol: "Alpomish" dostonidan parcha o'qilgandan so'ng, o'quvchilar Alpomish qiyofasini o'zlarining tasavvurlariga ko'ra chizishlari mumkin. Shu bilan ular o'qilgan materialni eslab qolishadi va tasviriy san'at orqali o'z hissiyotlarini ifoda etadilar.

**Drama va teatr texnikalari.** O'quvchilarning o'qigan matnlarini yaxshiroq tushunish va o'zlashtirishlari uchun drama va teatr texnikalarini qo'llash samarali hisoblanadi. O'quvchilarga o'qilgan matn asosida kichik sahna ko'rinishlarini ijro etish topshirig'i berilishi mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar matnni yanada chuqur tushunib, uni sahnaga moslashtiradilar va o'z his-tuyg'ularini ifoda etadilar. Misol: O'quvchilar "Qizil shapkacha" ertagini o'qiganlaridan so'ng, sinfda ushbu ertak asosida kichik sahna ko'rinishini qo'yishadi. Har bir o'quvchi o'ziga topshirilgan roldan kelib chiqib, o'z rolini ijro etadi. Bu usul bolalarning muloqot qilish ko'nikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Musiqa va ritm o'quvchilarning o'qish




darslariga qiziqishini oshirish va ularning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning o'qigan she'r va matnlarini musiqaqa solib kuylash, ular o'rganayotgan mazmuni yaxshiroq o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bu usul o'quvchilarda nafaqat o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki musiqa orqali ularning estetik zavq olishlariga ham yordam beradi. Misol: O'quvchilar mashhur bolalar she'rlarini musiqaqa moslashtirib kuylashadi. Bu esa ularning nafaqat she'rni eslab qolishlarini, balki ritmik tuyg'ularini ham rivojlantiradi.

**Raqamli san'at va texnologiyalarni qo'llash.** Raqamli texnologiyalar yordamida o'qish darslarini interaktiv va qiziqarli qilish mumkin. Bolalar o'qigan matnlarini kompyuter grafikasi yoki oddiy grafik dasturlar orqali vizual tarzda ifoda etishlari mumkin. Bu usul nafaqat bolalarning texnologik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning ijodiy salohiyatini ochishga ham yordam beradi. Misol: O'quvchilar o'qigan matnlari asosida oddiy kompyuter dasturlaridan foydalanib, qahramonlar yoki voqealar haqidagi suratlar yaratishadi. Bu jarayon bolalarning o'qish materialiga nisbatan ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Kollaj yaratish orqali o'quvchilar o'z o'qigan matnlari asosida birgalikda ijodiy asar yaratadilar. Bu faoliyat bolalarni matn mazmunini chuqurroq o'rganishga undaydi va ularning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi bolalarga o'qigan hikoyalari yoki ertaklari asosida kollaj yasash topshirig'ini beradi. Misol: Sinfda bolalar guruhlarga bo'linib, o'qilgan matn bo'yicha rasmlar va boshqa materiallardan kollajlar tayyorlashadi. Bu usul bolalarning ijodiy va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. ART texnologiyalarini samarali qo'llashning yana bir usuli - o'quvchilarning ijodini rag'batlantirishdir. O'qituvchi bolalarga o'qilgan matnlar asosida o'z ijodiy asarlarini yaratishni topshirishi mumkin. Bu ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning o'z tasavvurlariga ko'ra hikoyalar yozishlari, suratlar chizishlari yoki qahramonlar haqida she'rlar yaratishlariga imkon beradi. Misol: O'quvchilar o'qilgan hikoyaga yangi yakun yoki davom yozish topshirig'ini oladilar va bu ijodiy faoliyat orqali o'z tasavvurlarini kengaytiradilar.

Ranglar bolalar tasavvuri va emotsional holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'qilgan matn mazmunini chuqurroq tushunish va uni his qilish uchun ranglardan foydalanish usulini qo'llash mumkin. Masalan, o'qilgan hikoyani yoki ertakni ranglar orqali ifodalash, undagi emotsional holatni ko'rsatish bolalar ongida hikoyaning muhim qismlarini mustahkamlashga yordam beradi.




Misol: O'quvchilarga o'qigan matnlarini ifodalovchi ranglar tanlash topshirig'i beriladi. Masalan, qahramonning baxtli holatini sariq yoki yorqin ranglar bilan, g'amgin vaziyatni esa quyuq ranglar bilan tasvirlashni taklif qilish mumkin. Bu usul bolalarning emotsional rivojlanishiga yordam beradi va matnni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'qilgan hikoya yoki ertakning syujetini vizual tarzda xarita shaklida tasvirlash o'quvchilarga voqealar ketma-ketligini tushunish va hikoyaning umumiy mazmunini yodda saqlashga yordam beradi. O'quvchilar matndagi asosiy voqealar zanjirini tasvirlash orqali ularni mantiqiy tartibda joylashtiradilar.

Misol: Hikoyaning boshlanishi, rivojlanishi va yakunini xarita shaklida ko'rsatish. Har bir qismga alohida surat yoki ramzlar orqali ta'kid beriladi. Bu usul o'quvchilarni analitik fikrlashga, voqealarni bog'lashga o'rgatadi va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. O'qish darslarida san'at asarlarini matnlar bilan bog'lash ham juda samarali. Masalan, o'qituvchi o'qilayotgan matn mazmuniga mos keladigan mashhur san'at asarlarini (rasmlar, haykallar, arxitektura) ko'rsatib, ularni bolalar bilan birgalikda tahlil qilish orqali matnni osonroq tushunishga yordam berishi mumkin. Bu nafaqat o'quvchilarning badiiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning umumiy madaniyatini oshiradi. O'qish darslarida o'quvchilarga o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin ifoda etish imkoniyatini berish muhim. O'qilgan matn bo'yicha o'quvchilarga ijodiy muhokama tashkil etish, ularga o'qigan voqealar haqida o'z fikrlarini aytish yoki yozish topshirig'i berish samarali usullardan biridir. Bu usul bolalarning tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ART texnologiyasidan foydalanish nafaqat darslarni yanada qiziqarli va jonli qilishga, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari, emotsional rivojlanishlari va o'ziga ishonchlarini oshirishga yordam beradi. San'at elementlarini dars jarayoniga kiritish o'quvchilarni faollikka undaydi, ularni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va estetik tarbiyani shakllantiradi. Shu sababli, o'qituvchilar ART texnologiyalaridan foydalangan holda, o'qish darslarini boyitish va bolalar ijodini yanada keng rivojlantirishga erishishlari mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamurov, B. (2020). Umumiy pedagogika. Barcha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. –Toshkent, 118.
2. Mardiyeva, M. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy san'at fanining ahamiyati. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(12), 19-22.



3. Ruziyeva, D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 123-126.
4. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, M. (2024). Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini omaviy tadbirlarga tayyorlash usullari. Yangi o'zbekistonda ijtimoiy-innovatsion tadqiqotlar, 2(1), 41-44.
5. Dilova N.G. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi. Ped.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. - Nukus – 2018. – 52 b.

